



## BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHISI VA UNING RAHBARLIK MAHORATI

**Karimova  
Dilraboxon  
Ibrohimjon qizi**

*Qo'qon universiteti  
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi*

### Abstract

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchisini pedagogik mahoratining ahamiyati va rahbarlik qobilyatlari, o'z-o'zini boshqarish, innovatsion yondashuv, ota – onalar bilan muloqot, professional rivojlanish, pedagogik nazokat, o'qituvchining jamiyatdagi o'rnini egallash qobilyatlarini rivojlantirish haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

**Keywords :** O'qituvchi, rahbar, pedagog, boshlang'ich sinf, innovatsiya, ta'lim, tarbiya, muloqot, bilim, metod, qobilyat, sinf.

“O'qituvchi o'z bilim malakasini oshirish usullarini puxta egallamog'i, mustaqil ishlashini o'r ganmog'i lozim” – degan edi A. Jomiy.<sup>1</sup> Boshlang'ich sinf o'qituvchisi nafaqat bilim beruvchi, balki o'quvchilarini tarbiyalovchi, ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga hissa qo'shadigan shaxsdir. Uning rahbarlik mahorati o'quvchilarining o'z-o'zini anglashini, ijtimoiy muhitda muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlashda katta ahamiyatga ega. O'qituvchi yosh avlod qalbi kamolotining me'mori, yoshlarga ta'lim tarbiya beruvchi insondir. Biz o'qituvchilar bugungi kundagi yosh avlodlarimiz bo'lgan o'quvchilarini tabiatga, jamiyatga foydasi tegadigan, hayotni sevib ardoqlaydigan qilib tarbiyalashimiz kerak. Bugungi kun pedagogi shunday mahoratlil bo'lishi kerakki o'quvchilarini mehnatga o'rgata olishi zarur. Shuning uchun o'qituvchi o'z ishining mohir ustasi bo'lishi, o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatib, ularning qiziqishi, qobiliyati, iste'dodi, e'tiqodi, dunyoqarashi va amaliy ko'nikmalarini har tomonlama rivojlantirish yo'llarini izlab topadigan kasb egalari bo'lishi talab etiladi. Shuning uchun o'qituvchilarimizning kasbiy mahoratini, ko'nikma va malakalarini oshirib borish, zarur shart-sharoitlar yaratish, g'amxo'rlik qilish, doimo moddiy va ilmiy yordam ko'rsatilishi kerak. O'qituvchi rahbarlik mahoratiga ega bo'lishi uchun u o'zini o'quvchilarga qanday tutishini va ularning fikrini qanday shakllantirishni yaxshi bilishi kerak. Rahbarlik mahorati – bu faqat o'quvchilarini boshqarish emas, balki ularning ichki motivatsiyasini uyg'otish, ijtimoiy

<sup>1</sup> BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHISINING KASBIYPEDAGOGIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH DOI:  
10.53885/edinres.2021.25.35.028 Sh. A. Baxshulloyeva Buxoro davlat universiteti magistranti ( 2-bet)

qadriyatlarni o‘rgatish va o‘quv muhitini ijobiy tarzda shakllantirishdir. O‘qituvchining pedagogik mahorati pedagogika oliv ta’lim muassasalarida shakllanib boradi. Yosh o‘qituvchilarga pedagogik mahoratini oshirish maqsadida quyidagi bir qancha shartlar qo‘yilgan:

- Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi nafaqat bilim beruvchi, balki o‘quvchilar uchun motivator va rahbar sifatida ham faoliyat yuritadi. U o‘quvchilarni bilimga, ijodkorlikka va o‘ziga ishonishga undashda muhim rol o‘ynaydi.
- O‘qituvchining rahbarlik mahorati, o‘z ichiga, ijtimoiy ko‘nikmalar, emotsiyonal intellekt, qaror qabul qilish va jamoani boshqarish qobiliyatlarini oladi. Bu ko‘nikmalar o‘quvchilarning o‘zaro aloqalarini va muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi.
- O‘qituvchining rahbarlik qobiliyati sinfdagi muhitni belgilaydi. O‘quvchilarning o‘zlarini xavfsiz va qadrlangan his qilishlari, o‘qituvchining rahbar sifatida ularga qanday yondashishiga bog‘liqdir.
- O‘qituvchi o‘quvchilarga o‘z maqsadlariga erishish uchun zarur motivatsiya va qo‘llab-quvvatlashni taqdim etishi kerak. Bu o‘quvchilarning o‘z-o‘zini boshqarish va mustaqil fikr lash qobiliyatini rivojlantiradi.
- O‘qituvchilar zamonaviy ta’lim texnologiyalarini va innovatsion metodlarni joriy etish orqali o‘quvchilarning qiziqishini oshirishi va ularning ta’lim jarayonida faol ishtirok etishini ta’minlashi muhimdir.
- O‘qituvchi, ota-onalar bilan samarali aloqalar o‘rnatish orqali, o‘quvchilarning ta’lim jarayoniga yanada faol jalb etilishi va ularning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.
- O‘qituvchilar rahbarlik mahoratini oshirish uchun doimiy ravishda professional rivojlanishga va yangi pedagogik usullarni o‘zlashtirishga intilishlari zarur.

O‘qituvchining rahbarlik qobiliyatları quyidagilardan iborat:

Ijtimoiy ko‘nikmalar: O‘qituvchi o‘quvchilarning ehtiyojlarini tushunish, ularga muomala qilish va ularni bir-biriga bog‘lash qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Ijtimoiy ko‘nikmalar o‘z ichiga muloqot, fikr almashish va jamoada ishlashni oladi.

Emotsional Intellekt: O‘qituvchi o‘z va o‘quvchilarining hissiy holatini tushunishi va boshqarishi lozim. Bu, o‘z navbatida, ijobiy ta’lim muhitini yaratadi. O‘qituvchilar hissiy muvozanatni saqlashga yordam berishi va stressni boshqarish uchun vositalar yaratishi kerak. Pedagog har doim to‘g‘ri qaror qabul qilishi lozim. Har qanday ta’lim jarayonida qarorlar qabul qilish muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchi to‘g‘ri qarorlar orqali sinfda ijobiy o‘zgarishlar kiritishi mumkin. Bu jarayonda muammolarni aniqlash va yechimlarni ishlab chiqish ko‘nikmalari zarur.

O‘qituvchining ta’lim jarayonidagi rahbarligi: Rahbar o‘zining sinf muhitini yarata olishi muhim hisoblandai. O‘qituvchilar o‘z sinflarida qiziqarli va ijodiy muhit yaratish orqali o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishlari mumkin. Ushbu muhitda o‘quvchilar bir-biridan o‘rganadilar va birgalikda ishlashni boshlaydilar. O‘quvchilarda o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish: O‘qituvchi o‘quvchilarni jamoaviy ishga jalb etish orqali ularning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishi va o‘zaro yordamni rag‘batlantirishi mumkin. Har bir o‘quvchining o‘ziga xos qobiliyatları va

ehtiyojlarini inobatga olish muhimdir. O'qituvchi shaxsiy yondashuvni amalga oshirishi kerak.

Innovatsion yondashuvlar. Pedagog zamonaviy texnologiyalardan o'z o'rnila foydalana olishi zarur. Ta'linda yangi texnologiyalardan foydalanish, masalan, onlayn resurslar va interaktiv vositalar, o'quvchilarning qiziqishini oshiradi. O'qituvchi yangi pedagogik yondashuvlarni o'rganib, ularni amaliyotda qo'llashi lozim. Kreativ ta'lim usullari: O'qituvchilar kreativ va interaktiv ta'lim usullarini qo'llash orqali o'quvchilarni ijodkorlikka va tanqidiy fikrlashga rag'batlantirishi kerak.

O'qituvchining ota-onalar bilan o'zaro aloqada, muloqot olib boradi. O'qituvchilar ota-onalar bilan ochiq muloqot olib borishlari va ularni o'quvchilarning ta'lim jarayoniga jalb qilishlari zarur. Bu o'quvchilarning rivojlanishiga yanada ko'proq yordam beradi. Pedagog ota-onalar bilan hamkorlikda ishlashi muhim. Ota-onalar bilan hamkorlik orqali o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini oshirish mumkin.

Pedagoglar professional darajada rivojlanishi, doimiy o'z ustida ishlashi muhim. O'qituvchilar rahbarlik mahoratini oshirish uchun doimiy ravishda treninglarda va seminarlarida qatnashishlari zarur. Professional rivojlanish jarayonida yangi pedagogik yondashuvlar va innovatsiyalarni o'zlashtirish muhimdir.

Pedagogik jarayonda o'qituvchi axloqiy munosabatlarning sub`ekti hisoblanadi. U pedagogik jarayonning asosiy kishisi sifatida o'quvchilar, kasbdoshlar, ota-onalar bilan muomalada bo'ladi. Pedagogik muomala odobi, pedagoglarining eng muhim jihatlaridan biridir. O'quvchilar, kasbdoshlari, ota-onalar, pedagoglar jamoasi va jamoat tashkilotlarining vakillari o'qituvchi uchun pedagogik muomala-munosabatlarning ob`ekti hisoblanadi. Ular bilan bo'ladigan aloqalar yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish vazifalarini bajarish jarayonida sodir bo'ladi. Bu muomala jarayonida ishtirok etadigan kishilar bir-birlariga nisbatan hayrixoh, ijobiy hissiyotda bo'lishlari, bir-birlarining fazilatlarini o'zaro baholashlari, qadrlashlarini nazarda tutadi.

Muloqot - yunoncha so'zdan olingan bo'lib, so'zlashuv, suxbatlashuv, shaxslararo suhbat va fikr almashinuv degan ma'nolarni anglatadi. Haqiqiy pedagog faqat bilimga emas, so'zalshish madaniyatiga ham ega bo'lishi kerak. Maktabda, umuman o'qish jarayonida 2 ta asosiy shaxs – o'qituvchi va o'quvchi bo'ladi. Bu ikkala shaxsning dars jarayonida, sinfdan tashqari ish olib borish jarayonida ularning bir-biri bilan to'g'ri munosabatda bo'lish, o'quvchi shaxsi shakllanishida ta'limimiy-tarbiyaviy jarayon yaxshi ta'sir ko'rsatadi. Demak, o'qituvchining muomala odobi - u aloqa qiladigan odamlar, muassasalar bilan o'z kasbiy vazifasini bajarayotganda sodir bo'ladigan axloqiy munosabatlar majmuidir. Bu yondoshuv asosida pedagogik muomala odobini shartli ravishda quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- o'qituvchi bilan o'quvchilar o'rtasidagi muomala;
- o'qituvchi bilan pedagogik jamoa o'rtasidagi muomala;
- o'qituvchi bilan ota-onalar o'rtasidagi muomala;
- o'qituvchi bilan maktab rahbarlari o'rtasidagi muomala.

O'qituvchining o'quvchilar bilan muomalasi tarbiyani boshqarish vositasi sifatida qaralib, birlashtiruvchi, o'rnini to'ldiruvchi vazifasini ham bajaradi. Muomala o'zaro munosabatlar doirasida sodir bo'ladi. Boshqarish vositasi bo'lgan muomala

o‘quvchilarning faoliyatiga hamrohlik qiladi nihoyat, boshqarish vositasi bo‘lgan muomala faoliyatidan keyin boradi. Muomala - insonlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqa vositalaridir. Muomalada asosiy vosita til hisoblanadi. Shuning uchun ham til - aloqa quroli deyiladi. Insonning tili shirin, muomalasi madaniyatli bo‘lsa, qisqa vaqt ichida xalq orasida obro‘-e’tibor topadi. So‘zga chechanlik, hech qachon kishiga obro‘ keltirmaydi. Shuning uchun ham o‘tmishda yashab o‘tgan mutafakkirlarimiz tilga, so‘zga hurmat bilan yondashishlarini uqtirib o‘tganlar.<sup>2</sup>

Xulosa qilib aytganda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘quvchilarni nafaqat bilim bilan ta’minlaydigan, balki ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi rahbar hisoblanadi. Uning rahbarlik mahorati o‘quvchilarning muvaffaqiyatli ta’lim olishi, o‘z-o‘zini rivojlantirishi va jamiyatda o‘z o‘rnini topishi uchun juda muhimdir. Bu mahoratni rivojlantirish uchun o‘qituvchilar o‘z ustida doimiy ishslashlari, yangiliklarni qabul qilib, pedagogik yondashuvlarni takomillashtirishlari zarur.

### Foydalilanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHISINING KASBIYPEDAGOGIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH DOI: 10.53885/edinres.2021.25.35.028 Sh. A. Baxshulloyeva Buxoro davlat universiteti magistranti ( 2-bet)
2. BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHISINING PEDAGOGIK MAHORATINI SHAKLLANTIRISH. ( 3-bet)
3. Qizi, I. M. I. (2021). Mohlaroyim nodira's skill in using a satellite. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 1048-1052.
4. Imomalieva, M. I. (2021, April). THE EVOLUTION OF METAPHORICAL MEANING. In *E-Conference Globe* (pp. 25-26).
5. Otto, M., & Thornton, J. (2023). MAKTABGACHA INKLYUZIV TA’LIM SHAROITIDA BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI. *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 408-411.
6. Imomaliev, M. (2024). NODIRA MELODIES OF NAVOI. *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 10, 121-123.
7. Musharrafxon, I., & Nigora, M. (2024). YOSH AVLODGA KITOBOXONLIK KO ‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA OILANING O ‘RNI. *Kokand University Research Base*, 216-219.

<sup>2</sup> BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHISINING PEDAGOGIK MAHORATINI SHAKLLANTIRISH. ( 3-bet)